

## YUZ YILLIGING MUBORAK BO‘LSIN O‘ZBEKISTON!

**Shamsiyev Saidakbar**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Talabasi

+998901021603

[shamsiyevsaidakbar@gmail.com](mailto:shamsiyevsaidakbar@gmail.com)

**Annotatsiya:** Tarix uchun uncha uzoq bo‘lmagan so‘ngi asr, bir davlat uchun juda ko‘p voqealarni so‘zlab berdi. Ushbu qisqa maqola mustaqil O‘zbekistonning hudud jihatdan paydo bo‘lishidan to bugungi hurriyat zamoniga yetib kelishiga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, Hududiy Chegaralanish, Jadidlar, Mustaqillik Ostonasida, Yangi O‘zbekiston.

Kirish. Tarix — o‘zining sirlarga boyligi, buyuk o‘rgatuvchi, so‘zlovchi va isbotlovchi ekanligi bilan juda g‘ayrioddiy xususiyatga ega. Insoniyatga ma‘lum bo‘lgan uch ming yil insoniyat tamaddunidan, rivojlanishidan, taraqqiyotidan tortib toki yemirilishi-u tanazzuliga guvohligi haqida bong uradi. Har bir davrning zukko odami esa ushbu bongga quloq soladi va tarix qaridan kelayotgan qonun-u xabarlarga quloq tutadi. Ega bo‘lgan barcha ilm-u amalini bugungi zamondosh-u kelajak avlod xabardorligi uchun mas‘ul va majburiyatni bo‘yniga oladi. Bu holat tarix silsilasi kabi davom etadi. Ushbu silsila davomchilari tomonidan qoldirilgan ma‘lum va ,mashhur xabarlardan foydalanib shuni aytmoqda jazm qildikki, bugun biz yashayotgan ayni shu kunlar—o‘ziga xos yubiley shohidi. Ya‘ni mustaqil, suverin, huquqiy O‘zbekistonning hududiy tashkil etilganiga yuz yil bo‘ldi. Qanchalik bu tariximizning og‘riqli, asoratli vaqti bo‘lmasin, biz bu haqida so‘zlamasdan, o‘rganmasdan ilojimiz yo‘q. Chunki tarix silsilasi davom etishi, buyuk saboq beruvchi ustozlik maqomini saqlab qolmog‘i lozim. Tan olishimiz kerakki, O‘zbekistonning bundan yuz yil oldin tashkil etilishi qanchalar og‘riqli, alamli va yo‘qotishlarga boy bo‘lmasin, tanganing ikkinchi tarafini inobatga olgan holda biz tarixning haqiqatlarini ilm-u amalimiz yetgan darajada ro‘y-u rost namoyish etmog‘iz darkor.

Ilm-u adabiyot, darslik va qo‘llanmalarga tayanadigan bo‘lsak, bundan roppa-rosa yuz yil ilgari, 1924-yil 17-fevralda Butunbuxoro Xalq Uyida Sovet Sotsialistik respublikalari qatorida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etish to‘g‘risida deklaratsiya” qabul qilindi. O‘zbekiston SSR ni tuzishda faol bo‘lgan, sobiq Buxoro SSR xalq komissarlari soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev yangi tashkil etilgan O‘zbekioton SSR Xalq komissarlari soveti raisi, farg‘onalik Qo‘shchi uyushmasi faoli Yo‘ldosh Oxunboboyev esa Markazil ijroiylar qo‘mitasi rahbari bo‘lib saylandi. Albatta, ushbu holat —ko‘pchilik tarixshunos va aholining ziyoli qatlami tonidan O‘rta Osiyoda mamuriy hududiy chegaralanish o‘tkazilishi qoralanib namoyish etiladi. Bu holatni qo‘llab-quvvatlagan ko‘plab jadidlar esa tanqidga uchraydi. Ammo yuqorida ta‘kidlab o‘tkanimizdek tanganing ikkinchi tomoniga nazar tashlab ko‘rsak. Avvalo ulug‘ revolyutsiya natijasida Rossiya imperiyasida hokimiyatga kelgan bolsheviklar butun imperiya bo‘ylab boshqaruv tuzumini tubdan qayta tuza boshlashdi. 1922-yil 30-dekabrda to‘rtta davlat: Ukraina, Belorusiya, ZSFSR(Kavkazorti) va RSFSR yagona ittifoq Sovet Sotsialistik Respublikasi(SSSR) tuzish to‘g‘risida kelishuv imzolandi(1). E‘tiborli jihati shundaki, ushbu davrda

Oʻrta Osiyoda Buxoro va Xorazm XSS respublikalari va RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonomiyasi mavjud edi. SSSR tuzilganda bularning hech biri mustaqil maqomga teng koʻrilmadi. Hattoki, 1936-yilgacha SSSR tarkibida faqatgina Oʻzbekiston va Turkmaniston SSR mustaqil davlat maqomini ololgan. Bu shundan dalolat beradiki, mabodo Oʻrta Osiyoda maʼmuriy hududiy chegaralanish oʻtkazilmaganda, bugungi Rossiya federatsiyasi tarkibidagi Tatariston, Chechiniston, Boshqirgʻiston, Yoqutiston kabi maqomga ega boʻlish ehtimoliz mavjud boʻlardir. Bu bilan bolsheviklarning Markaziy Osiyoni kichik davlatlarga boʻlib yuborishi va bir-biriga dushmanlik ruhini joylashini oqlamoqdan ancha yiroqman. Shu bilan bir qatorda, mayda davlatlarga boʻlinib, bir-birimizga qarshi qoʻyish siyosati ham faqat bolsheviklarni aybdorlashga biroz qarshiman. Chunki bunday holatga, qariyb ikki asr bir elat, bir din va madaniyat boʻla turib uch davlat koʻrinishida yashashimizga sababchi boʻlganlarning yaxshigina hissasi mavjud!

Nima boʻlgan taqdirda ham tarix oʻz soʻzini aytdi. Biz tarix voqealarida ishtirokchi maqomini oldik. Oʻzbekiston davlatining hududiy tashkil etilishi qanchalik murakkab, ogʻir va chigal boʻlgan boʻlsa, u tashkil topgandan keyingi hayoti ham yengil kechmadi. Garchi, tarix uchun yuz yil katta davr hisoblanmasada, biz Oʻzbekistonliklar uchun oʻtgan ming yillardan koʻra, oxirgi yuz yil siyosiy, madaniy, ijtimoiy, badiiy, estetik va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha butunlay boshqa davrni ochib berdi. Davlat va jamiyatning asrlar davomida tuzilib kelgan barcha sohalari qayta tugʻilana boshladi. Oʻrta Osiyo xalqlari hech qachon bu kabi yangilanishlarning guvohi boʻlmagan edi. Shubhasiz Oʻzbekiston xalqi ilk kunlaridan tortib toki mustaqillik davrigacha juda koʻplab voqealar guvohi, nafaqat guvohi, balki bevosita ishtirokchisi boʻldi. Bunga misol qilib, kollektivlashtirishdan tortib qatagʻongacha, madaniy inqilob-u hujum kompaniyasi, iqtisodiy va siyosiy repressiyalar bilan bir qatorda ikkinchi jahon urushi va undan keyingi qayta tiklanish davri, jadidlarning mardonavor kurashi-yu xoin va sotqinlarning suv yuziga qalqib chiqishigacha aytishimiz mumkin. Bu davr Oʻzbekiston SSR ning birinchi sovet davri hisoblanib, unda asosan butun sovet mamlakatlarining integratsiya uchun kurashi davri boʻldi.

Oʻzbekiston Sovet davri ikkinchi bosqichida asosan barcha sovet davlatlari yagona markaz ostida birlashdi. Jahon maydonida kuchli, quvvatli yaxlit SSSR davlati paydo boʻldi. Bu davr ham Oʻzbekiston xalqiga chigalli oʻziga xos yutuq va kamchiliklar, zamonaviy oʻzbekiston xalqining shakllanish va tugʻilish davriga toʻgʻri keldi. Bu davr xalqlar otasi Stalinning vafot etishi bilan boshlanib, yosh va sergʻayrat deb tariflangan Gorbachyov davrigacha oʻz ichiga oldi. Ushbu davrning muhim xususiyatlari shuki, yurtimizda paxta monokulturasining oʻrnatilishi, shaxsga sigʻinishning oqibatlarini bilan duch kelish, qishloq xoʻjaligi rivojlantirilishi bilan birga Oʻzbekistonning yirik tabiiy xomshyo bazasiga aylantirilishi va orolning tomirlariga bolta urish bilan boshlanib, turgʻunlik davri, aholining nisbatan farovonligi oshishi, madaniyatlararo munosabatlar uygʻunligi, internatsionalizm keng quloq yoyishi va shaharlar qurish, urbanizatsiya bilan davom etdi. Koʻpchilikning yetmishinchi yillardan keyingi farovonlikning nostalgiyasi ham, balki, shundandir. Bu davrning oʻziga xos jihatlardan biri, Oʻzbekiston sanʼati, adabiyoti, musiqasi-yu kinosi, ilmiy salohiyatining taraqqiyoti boʻldi. Bu davrda yaratilgan adabiyot kitoblari, sahna asarlari, Oʻzbekiston kinosining durdonalari, tarix, iqtisodiyot, astronomiya, matematika, biologiya kabi aniq fanlardan erishilgan yutuqlar olimlar-u sanʼatshunoslar bugungi Oʻzbekistonning yaqin kelajakdagi shon-shavkati va rivojlanishining tamadduni hisoblanadi. Albatta bu davr haqida bizda oʻrgangan va oʻrganilishi kerak boʻlgan manbaalar juda koʻp. Ular yordamida biz bu davrning real holatini chiza olamiz.

Oʻzbekistonning Sovet davrining uchinchi bosqichi 1985-1990-yillarni oʻz ichiga oladi. Bu davr ham boshqalaridan qolishmagan tarzda juda ziddiyatli va xolis yondoshish murakkab davr hisoblanadi. Bu davr voqealarini yozishdan oldin, mamlakatdagi siyosiy holatga biroz eʼtibor qaratsak. Sovet davlatida 60-yillarda oʻrnatilgan iqtisodiy tizim, texnika va texnologiyalar 80-yillarga kelib oʻz samaradorligini yoʻqotdi. Natijada butun ittifoq boʻylab iqtisodiy tizim izdan chiqq boshladi. 80-yillarda rahbarlik qilgan uch lider: Brejnev, Yuriy Andropov va Chernenko kekxa, kasalmand boʻlib islohot oʻtkazish imkoniyati va xohishiga ega emasdi. Mamlakatda esa iqtisodiy tizimi barbod boʻlar, tobora

islohatlarga muhtojligi o'tar edi. Shunday paytda 1985-yil 11-martda partiya rahbarligiga Sergey Gorbachyov keldi. U butun mamlakat bo'ylab qayta qurish siyosatini boshlab yubordi(2). Aslida qayta qurish iqtisodiy tizimni o'ylab amalga oshirishni ko'zlagan bo'lsada, natijada yondosh tarmoqlarga kuchli ta'sir etdi. Mamlakat bo'ylab barcha sohalar yangicha ruh bilan yangilana boshladi. O'zbekistonda bu holat shu taxlit o'z aksini topdi. Avvalo O'zbekistondagi saksoninchi yillarda iqtisodiy holat juda ayanchli edi. Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, O'zbekistonda ishlatiladigan bir dona mix O'zbekistonda ishlab chiqarilmagan. Mamlakatimiz sovet davri rahbarlaridan biri maqtanmoq yuzasidan olti million tonna paxta va'da berishi ketidan, yurtimizning barcha hududiga, shoirlar tili bilan aytganda: uyimizning tomidan boshqa barcha joyga paxta monokulturasini o'rnatildi. Bundan tashqari saksoninchi yillarning ikkinchi yarmidan paxta ishi nomli ulkan qatog'on to'liqini kirib keldi. Sovet davrining oxirgi yillari O'zbekiston xalqining oxirgi sabrini sinash davri bo'ldi deb aytsak xato bo'lmaydi. SSSR da qayta qurish oxir oqibat aks ta'sir berdi. Milliy davlatlarning suverineta to'g'risidagi gaplar chiqishi bilan butun ittifoq bo'ylab norozilik namoyishlari, millatlararo to'qnashuvlar, markazga birlashish o'rniga markazdan qochish holatlari namoyon bo'ldi. O'zbekistonda esa iqtisodiy tanazzul bilan bir paytda, ichki va tashqi tomondan millatlararo nizolar ayanchli tus oldi. Shunday paytda haqiqiy O'zbekiston qahramonlaridan biri maydonda o'zini namoyish etdi. Juda ko'plab olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida 1990-yilda "Mustaqillik deklaratsiyasi" qabul qilindi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi ham diqqatga sazovor hodisa bo'ldi. Kavkaz respublikalarida, Ukraina, Boltiqbo'yi davlatlari va Rossiya ichida bo'layotgan namoyishlar va qonli toqnashuvlar SSSR ning kelajagi yo'qlidan dalolat bera boshladi. Tarixning qiziqarli jihatiga qarangki, O'zbekiston qanday og'ir, ziddiyatli davrda tashkil topgan bo'lsa, uning suveren mustaqil bo'lishi ham shunday davrga to'g'ri keldi. Har ikki holatda ham qiyinchilik bilan huquqiy maqomiga ega bo'ldi va mashaqqatli mehnati, sabr-toqati bilan yashab qoldi.

1991-yil 31-avgust Oliy kengash XII chaqiriq VI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risidagi" 17 moddadan iborat qonun qabul qilindi(3). Islom Karimov boshchiligidagi hukumat va Oliy Kengash 1991-93-yillarda O'zbekistonning suverineta, hududiy yaxlitligi, mustaqil maqomini ta'minlash borasida bir qancha qonun va qonunosti qarorlar qabul qildi. Mamlakat hududida joylashgan barcha harbiy qismlar va bo'linmalarining davlat yurisdiksiyasiga olish orqali davlat mudofaa xavfsizligini ta'minlandi. Sobiq Sovet iqtisodiy tizimidan chiqib mustaqil iqtisodiy quvvat hosil qilish maqsadida — qardosh Turkiya, sanoatlashayotgan Xitoy va Janubiy Korea va dengiz imkoniyatlariga ega bo'lgan Hindiston bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yildi. Ma'daniyat va ma'naviyat, ta'lim, sport, sog'likni saqlash va boshqa sohalarda ham Milliy g'oya tamoyillaridan kelib chiqib yangilanishlar, islohotlar amalga oshirildi. Xalqaro hamjamiyatga taraqqiyotning o'zbek modeli orqali kirib borildi. Bu 90-yillar O'zbekistonning xalqaro miqyosda chuqur integratsiyasi yo'lida muhim qadamlar bo'ldi. Ammo, har doim ham tekis emasligi, tarix bizni doim turli-turli sinovlarga qiyinchilillarga solib qo'yishi hech kimga sir emas. To'qsoninchi yillarda boshlangan "arab bahori" biz tomonlarga 2000-yillarda kirib kela boshladi. Avvalroq tojik qardoshlarimizda boshlanib tugagan birodarkushlik urushidan qochgan jangari to'dalar XXI asr ilk yillaridan bizning yurtimizga xavf solish ehtimollari oshib bordi. Sariosiya, Farg'ona vodiysidagi, Toshkent va yurtimizning boshqa ko'plab tuman va shaharlardagi terrorchilik harakatlari — davlat hukumat rahbarlarini qattiq tashvishga solib qo'ydi. Natijada bir qator jiddiy radikal qarorlar berishga to'g'ri keldi. Davlat siyosatida xavfsizlik eng birinchi o'ringa qo'yila boshlandi. Albatta, bunday qarorlar o'zining salbiy holatlarini nomiyish etmasdan qolmadi. Endigina integratsiya yo'lida ketayotgan O'zbekiston oldida mushkul va qiyin tanlovlar qilish vazifasi vujudga keldi. Bu tanlovlar natijasini shu davrning qahramoni, Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: "Biz uchun eng muhim narsa — bu tinchlik. Agar tinchlik bo'lmasa hech narsa bo'lmaydi. Dunyoda aytaylik ko'rib turibsizlar qanday bir urushlar rizolar ketyapti..."(4) biz qilgan tanlovlar Yevropa va Amerika bilan O'zbekiston munosabatlarida iliqlikning buzilishi va

harakatsizlikka olib keldi. Oxir oqibat qardosh Turkiya bilan munosabatlarni chigallashishga ham sabab bo'ldi. 2000-yillarning ikkinchi yarmidan O'zbekiston o'ziga proteksionizm siyosatini yo'lga qo'ydi. Ammo, bu O'zbekiston butunlay yopilib qoldi degani emas, Xitoy, Rossiya, Janubiy Korea kabi bir qator rivojlangan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib bordi. MDH va SHHT doirasida keng savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, pul-valyuta tizimi bo'yicha o'z faoliyati davom ettirdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarlarida bir necha bor jahon e'tiborini Markaziy Osiyoga qaratish bo'yicha chiqishlar amalga oshirildi. Bu davrda fan-ta'lim, sport, sog'likni saqlash, innovatsiya, qishloq xo'jaligi sohalarida olib borilgan o'zgarishlar ham bir olam. Tan olib aytmoq lozimki, XXI asrda dunyo manzarasi tezlik bilan o'zgarib o'tgan bir davrda O'zbekistonda 2010-yildan keyin fan ta'lim, iqtisodiyot va ijtimoiy holat yolg'on ma'lumotlar bilan birga, tushish xarakterini namoyish etmoqda edi. Mamlakatga yangi kuch, yangi nafas, umuman, yangiliklar davri kerak edi. Bu uzoq kuttirmadi.

2016-yil 4-dekabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan prezidentlik saylovida Shavkat Mirziyoyev mustaqil O'zbekiston tashkil topgandan buyon saylangan ikkinchi yangi prezident bo'ldi. Ushbu hodisa haqiqatdan, mamlakatga yangicha shukuh, yangi ruh olib keldi. Mustaqil O'zbekiston tarixida yangi davr boshlandi. Jamiyatning barcha jabhalarida tubdan yangilanishlar islohatlar boshlab yuborildi. Yurtimizning hech bir sohasi, fuqarosi yo'qki, islohat shamolini o'zida sezmagani. Deyarli to'xtab qolgan O'zbekistonning jahon integratsiyasi yana qayta avj ola boshladi. Ayniqsa, yangi davrda o'tkazilgan: inson huquqlari bo'yicha yangiliklar, xalq va davlat orasidagi muloqot tizimining ishlab chiqilishi, xalqaro standartlarga mos keladigan fan-ta'lim, sog'likni saqlash tizimidagi o'zgarishlar, texnika-texnologiyalarning kirib kelishi kabi bir qator ichki yangiliklar xalq yashash motivlarini qayta tuzdi. Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosat, ko'p vektorli savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar davlatning xalqaro obro'yini oshirishda muhim jihat bo'lib xizmat qildi(5). Jamiyatning pozitiv rivojlanishida yangi davr uchun mos bo'lgan Uchinchi Renessans g'oyasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda olib borilayotgan ochiqlik siyosati orqali O'zbekistonning uzoq va yaqin tarixidagi yutuq va kamchiliklari tanqidiy tahlil qilinmoqda va o'ziga xos xulosalar bildirilmoqda. O'zbekistondagi so'ngi yuz yilda ro'y bergan va berayotgan o'zgarishlarni bema'lol XIX asr yevropa jamiyatlaridagi iqtisodiy revolyutsiyaga o'xshatish mumkin. Mamlakatimizdagi so'ngi yillarda egallangan imkoniyatlar tufayli erishilgan iqtisodiy barqarorlik natijasida yurtimiz aholisining yaqin o'tmishdagi og'riqli, rutubatli davrlarini esdan chiqarish, kelajakka o'zgacha ishonch bilan qarash, yangicha dunyoqarashga ega bo'lish kabi holatlar vujudga kelmoqda. Bundan tashqari, o'tmishdagi mag'lubiyatlarimiz uning natijasida tortgan uqubatlarimiz bugun bizni yanada jipslikka, beqaror global zamonda hamfikir, hamjihat bo'lishimiz darkorligi bot-bot davlatimiz rahbari tomonidan takrorlanmoqda. Bu esa kelajakda O'zbekistonning barhayotligi, nafaqat, barhayotligi balki, uning yanada faravonligi, quvvatli bo'lishi uchun doimo harakat qilishimiz kerakligi chuqur anglatadi.

O'tgan davr mobaynida aniq bo'lgan jihatlardan biri shuki, Stalinning uzoq muddat turganligi, Brejnev va boshqalar tufayli mamlakatda toza havo kamayish holati kuzatildi. Yurtda tushkunlik, yakunida esa ishonchsizlik va harakatsizlik holatlari kuzatildi. Bundan kelib chiqadiki, davlat doimo yashnab, yasharib turishi uchun toza havoga, yangi nafasga muhtoj ekan. Zamonaviy O'zbekiston, albatta bu kabi muhim jihatlarga aniq e'tibor beradi va faravon kelajagi uchun zarur bo'lgan barcha ishni qila oladi. Qadimiy kuchli ildizga ega bo'lgan buyuk va donishmand O'zbekiston xalqi o'zining mustahkam qadriyat va an'analariga sodiqligi, bukilmaz irodasi, mentindek sabr-u irodasi tufayli boshiga tushgan barcha qiyinchilik-u mashaqqatni yengib o'ta oldi. Tarixan haq bo'lgan mustaqilligiga ega chiqa oldi. Bundan keyin hech qachon hech kimga o'z mustaqilligini, erkinligini birovlariga berib qo'ymaslik lozimligini chin yurakdan, vujud-vujudi bilan his etdi. Tarixiy sikllik qonuniyatlaridan biri shuki, har bir jamiyat taraqqiyotga haqli. Ishonchimiz komilki, bu tarixiy haqiqatni biz obod va faravon davlatimiz va buyuk va oliyjanob dono xalqimiz bilan birga quramiz!

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston tarixi: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining oquvchilari uchun darslik / Muall: Q. Rajabov, A. Zamonov. 1-nashr. —T.: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 — 144 b.
2. Jahon tarixi [Matn]: O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik / Sh. Ergashev, B. Xodjayev, J. Abdullayev. — Toshkent: «Turon-Iqbol», 2017. — 144 b.
3. O‘zbekiston tarixi: O‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik / Muall.: N.Jo‘rayev, A.Zamonov. 1-nashri. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 144 b.
4. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида / И.А. Каримов. —Т.: «Ўзбекистон», 2011. — 440 б.
5. Buyuk kalajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. —Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. — 488 b.